

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TARMOQLAR IQTISODIYOTI”
KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK : 336.1(575.1)

KO'MAKOVA AZIZA ZAYNIDDIN QIZI

BYUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI
VA BUNDA OCHIQLIK SIYOSATI

70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
dots. Kasimov A.

Toshkent – 2023

Magistrlil dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

9-sonli bayonnoma «27» 04 2023 y.

Ilmiy rahbar:

A.Kasimov

[Signature]
imzo

18.05.23
sana

Magistr:

A.Ko'makova

[Signature]
imzo

18.05.2023
sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "18" 05
№ 2/10 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasii
mudiri dots. I.Xotamov [Signature]
"3" "05" 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
2023 yil "18" 05 soat "10⁰⁰" da bo'ladi

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish yo'llari va bunda ochiqlik siyosatining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Iqtisodiy islohotlar sharoitida byudjet daromad bazasini shakllantirish va mustahkamlashning nazariy asoslari va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish yo'llari o'rganilgan.

Shuningdek, byudjet daromadlarini shakllantirish va uning tarkibini amaldagi holati tahlil qilingan. Byudjetdagi subventsiyalar darajasini kamaytirish uchun ularning daromad bazasini oshirish zarurligi asoslangan. Byudjet daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha umumiy iqtisodiy va moliyaviy tavsifdagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: byudjet, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, iqtisodiy rivojlanish, byudjet mablag'lari.

Summary

In this master's thesis, the ways of effective use of budget funds and the specific features of the policy of openness are highlighted. In the conditions of economic reforms, the theoretical foundations of the formation and strengthening of the budget income base and ways of effective use of budget funds have been studied.

Also, the current state of formation of budget revenues and its composition was analyzed. It is based on the need to increase their income base in order to reduce the level of subsidies in the budget. Practical recommendations of macroeconomic and financial description have been developed to strengthen the budget revenue base.

Key words: budget, budget revenues, budget expenses, economic development, budget funds.

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	8
Keltirilgan qisqartmalar	9
KIRISH	10
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	11
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari	12
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	12
Tadqiqotning ob'yekti va predmeti	13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	13
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	15
1.1. Kirish	15
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	16
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	25
1.4. Xulosa	29
II BOB. METODOLOGIYA	30
2.1. Tadqiqot dizayni	30
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	30
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	30

2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	31
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	31
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	32
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	33
3.1. O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti parametrlari va uning tahlili	33
3.2. Budget daromad bazasini shakllantirishning xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari	40
3.3. "Ochiq byudjet" tizimi, uning byudjet tizimining rivojlanishiga ta'siri ...	44
3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi	54
XULOSA	56
Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	56
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	62
Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	69

KIRISH

Mamlakatimizda byudjet-soliq sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida aholi turmush farovonligini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojiga keng imkoniyat yaratish maqsadi mujassamdir. Xususan, iqtisodiyotda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ana shu maqsad ro'yobiga qaratilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi davlat siyosatining joylardagi samarali ijrosi o'zini-o'zi boshqarish organlarning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liqdir. Zamonaviy sharoitlarda esa byudjetning daromad bazasini shakllantirish amaliyoti ularning to'liq moliyaviy mustaqilligini ta'minlash bilan birga, iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish orqali byudjetga tushumlarni ko'paytirishda davlat hokimiyati organlari rag'batlantiruvchi tavsifga ega bo'lmayotir.

Bugungi kunda byudjet daromadini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, bunda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda keng qo'llash orqali ushbu masalaga tizimli yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy resurslarning salmog'i oshishi ustun ravishda xarajatlarning oshib borishi bilan bog'liq bo'lib davlat iqtisodiyotni ijtimoiy infrastrukturani ishchi kuchini tayyorlash bilan bog'lik xarajatlarni joylarga berib bormoqda. Iqtisodiy islohotlarni rivojlanishi davlat hokimiyati organlarining xuquqlari va vazifalarini ancha o'zgartiradi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishning bu bosqichida hududiy rivojlanish va isloh qilishning asosiy vositalari sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar shaxarlar va tumanlarning ijtimoiy iqtisodiy muammolarini hal qilishdagi huquqlari va vakolatlarini bosqichma bosqich kengaytirib borish zarur.